

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



VUCA-DUNYO KONTSEPTIDA O'QUVCHILARDA AXLOQIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Hasanova Bo'rigul Hasan qizi

Navoiy davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada VUCA-dunyo muhitida o'quvchilarda axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinib shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati, zamonaviy tahdidlarning ta'siri, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning samarali mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan chuqur yoritilishiga harakat qilingan. Bir qator ilmiy nazriy ilmiy ishlar tahlil qilinib nazariy qarashlar amaliy misollar bilan boyitiladi.

Kalit so'zlar: VUCA-dunyo, axloq, axloqiy me'yor, zamonaviy pedagogika, ichki motivatsiya, ijtimoiylashish, hayotiy pozitsiya, ehtiyoj, konsept, tarbiya.

РАЗВИТИЕ НРАВСТВЕННОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В КОНТЕКСТЕ КОНЦЕПЦИИ VUCA-МИРА: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Хасанова Буригул Хасан кизи

Навоийский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические основы формирования нравственного мировоззрения учащихся в условиях VUCA-мира. Рассматриваются значение духовно-нравственного воспитания, влияние современных вызовов и угроз, инновационные педагогические подходы, а также эффективные механизмы формирования нравственных ценностей в образовательном процессе. На основе анализа ряда научно-теоретических исследований предпринята попытка всестороннего раскрытия рассматриваемой проблемы, а теоретические положения дополнены практическими примерами.

Ключевые слова: VUCA-мир, нравственность, моральная норма, современная педагогика, внутренняя мотивация, социализация, жизненная позиция, потребность, концепция, воспитание.

DEVELOPING STUDENTS' MORAL WORLDVIEW IN THE CONTEXT OF THE VUCA WORLD: A PEDAGOGICAL CHALLENGE

Hasanova Bo'rigul Hasan qizi

Navoi State University, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the pedagogical foundations for developing students' moral worldview within the context of the VUCA world. It examines the significance of spiritual and moral education, the impact of contemporary challenges and threats, innovative pedagogical approaches, and effective mechanisms for fostering moral values in the educational process. Based on the analysis of a number of theoretical studies, the paper seeks to provide a comprehensive interpretation of the issue, while enriching theoretical perspectives with practical examples.

Keywords: VUCA world, morality, moral norm, contemporary pedagogy, intrinsic motivation, socialization, life position, need, concept, education.

Hozirgi o'zgaruvchan hayotda tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada o'zgarishlar va taraqqiyot davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu zamonda axborot oqimi cheksiz darajada kuchayib, turli xatarlarga, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy sohadagi tahdidlarga sabab bo'lmoqda. Buning oqibatida turli xalqlarning axloqiy qadriyatlari o'zgarishga uchrab, ba'zi qadriyatlar esa butunlay yo'qolib borish xavfi yuzaga

kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunday noaniq va murakkab sharoitda milliy qadriyatlarni asrash va ularni o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda va internetda turli asoslangan va asoslanmagan axborotlar ko'paygan. O'sib kelayotgan o'quvchi yoshlar bir ma'lumotni o'rganishda internet va ijtimoiy tarmoqlar hamda sun'iy intellektlardan foydalanib, asoslanmagan axborotlarga tayangan holda o'z bilim va tafakkurini rivojlantirmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi zamonda ta'lim fidoyilari o'quvchi yoshlarga internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish odobi, ishonchli ma'lumotlarni o'rganib, keraksiz ma'lumotlarga vaqtini sarflamaslik kabi bir qator ko'nikmalarni rivojlantirishimiz davr muammosidir.

O'quvchi yoshlar raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan hozirgi davrda ularda axloq, axloqiy dunyoqarash kabi ma'lumotlarni o'rgatib va ularni anglab yetib, amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim fidoyilaridan katta kuch va g'ayrat talab qiladi. Bugungi zamonda ko'rishimiz mumkinki, o'quvchi yoshlarimiz internet va ijtimoiy tarmoqlardan ijobiy va salbiy tomondan anglamasdan foydalanib, hayotiga tatbiq qilmoqdalar. Har qanday ma'lumot insonning ma'naviyatini o'zgartirmasdan qolmaydi.

VUCA-dunyo konseptida biz yoshlar ongini zaruriy bilim va tarbiya asosida shakllantirishimiz, ularni milliy g'urur, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashimiz eng muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan:

- yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

- yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash [1]

kabi bir qator yo'nalishlar belgilab olinganligi hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib joriy etilishi ushbu muammoning dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tezlik bilan rivojlanayotgan bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida jamiyat taraqqiyoti murakkab, tezkor va ko'p omilli jarayon sifatida kechmoqda. Ushbu holat ilmiy manbalarda VUCA-dunyo tushunchasi orqali ifodalanib, **“VUCA-dunyo (Volatility — o'zgaruvchanlik; Uncertainty — noaniqlik; Complexity — murakkablik; Ambiguity — mujmallik)”** [2] deb izohlanadi.

Axloq inson ongining ijtimoiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, u shaxsning kundalik xulq-atvori, muomala madaniyati, turmush tarzi, hayotga bo'lgan munosabati, amal qiladigan qadriyatlari va me'yorlari, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar mazmunini ifodalaydi. Shu jihatdan, axloq jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim o'rin egallovchi o'ziga xos ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Har bir xalqning milliy qiyofasi, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va nufuzi ko'p jihatdan axloqiy mezonlar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu tushuncha eng qadimgi ijtimoiy tuzumlardan boshlab jamoatchilik fikri vositasida insonlar faoliyati va o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi mexanizm sifatida shakllanib kelgan. Shu sababli, axloq kategoriyasi qadim zamonlardan buyon ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ruhiy, pedagogik, tarixiy, adabiy, etnografik va madaniy yo'nalishdagi tadqiqotlarda keng qo'llanib, ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Axloq (arabcha “xulq-atvor” degani) – ijtimoiy ong turlaridan bo'lib, u muayyan qoidalar tizimini ifodalaydi. Ushbu qoidalar jamiyat hayotining barcha yo'nalishlarida insonlar faoliyatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloqning o'ziga xosligi shundaki, u ta'lim, ishlab chiqarish yoki urf-odatlar singari faoliyat sohalarida ham o'z talablarini jamoa fikriga asoslangan holda shakllantiradi va hayotga **tatbiq** etadi.

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi [3]:

1. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. O'quvchilarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, Vatanga, xalqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hokazo)ni qaror toptirish.

4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.
5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish [4].

Shuningdek, ma'naviyat va axloq muammolari jahon olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Xususan, Buravleva N.A. (2011) hamda J. Dikson (1995) o'z ilmiy asarlarida shaxsning ma'naviy rivojlanishi va axloqiy kamolotining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini atroflicha tahlil qilganlar. Ushbu ilmiy qarashlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish jarayoni o'z-o'zidan yuzaga keladigan hodisa emasligini, balki puxta rejalashtirilgan va maqsadli pedagogik faoliyatni talab etadigan murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur jarayonda o'quvchilarga faqat axloqiy bilim va tushunchalarni yetkazish bilangina cheklanilmay, ularni ongli ravishda qabul qilish hamda hayotiy faoliyatida qo'llashga xizmat qiluvchi ichki motivatsiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o'quvchilarda jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan ijobiy axloqiy sifatlar, mustahkam iroda va barqaror xarakter bosqichma-bosqich rivojlanadi. Eng muhimi, ular o'zlarini jamiyatning faol, mas'uliyatli va ijtimoiy qadriyatlarga sodiq a'zosi sifatida anglay boshlaydilar hamda o'z xatti-harakatlari orqali ushbu qadriyatlarni amaliy hayotda namoyon etishga intiladilar. Shu bois ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchining ichki e'tiqodi va tashqi xulq-atvori o'rtasida uzviy uyg'unlikni ta'minlovchi muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatning jadal o'zgarishi, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlarning murakkablashuvi ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda dunyo VUCA (Volatility – o'zgaruvchanlik, Uncertainty – noaniqlik, Complexity – murakkablik va Ambiguity – mavhumlik) konsepti bilan tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish ham muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki VUCA muhiti yoshlarning qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson shaxsining shakllanishi uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ayniqsa bolalik va o'smirlik davrida jadallashadi. Shu davrda o'quvchi hayotiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, jamiyatdagi o'z o'rnini anglaydi va shaxsiy e'tiqodlarini shakllantira boshlaydi. VUCA sharoitida esa turli axborot manbalari, ijtimoiy tarmoqlar va global madaniy ta'sirlar o'quvchilarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Shu sababli ularning axloqiy qarashlarini ilmiy-pedagogik asosda rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanadi. O'quvchining dunyoqarashi uning hayotga, jamiyatga va o'ziga bo'lgan munosabatini belgilovchi muhim omildir.

Dunyoqarash orqali shaxs voqea-hodisalarni baholaydi, maqsadlarini belgilaydi va o'z faoliyatini ongli ravishda tashkil etadi. Axloqiy dunyoqarash esa ushbu jarayonda insonning adolat, halollik, mas'uliyat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarga tayanib qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham VUCA-dunyo sharoitida o'quvchilarning axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish ularni turli salbiy g'oyalar va axborot xurujlaridan himoya qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Axloqiy dunyoqarash faqat nazariy bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning ichki e'tiqodi va amaliy faoliyatida namoyon bo'ladigan qadriyatlar tizimidir. U o'quvchining mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi va murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois axloqiy dunyoqarashni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bir qatorda o'quvchining shaxsiy tajribasi, **oilaviy muhiti, ijtimoiy munosabatlari** va raqamli makondagi faoliyati bilan ham uzviy bog'liqdir. VUCA konsepti sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi o'quvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish, ularda mas'uliyat hissini kuchaytirish hamda o'zgaruvchan muhitda barqaror axloqiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Buning uchun ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar tahlili, loyihaviy ta'lim, rolli o'yinlar, munozaralar, media savodxonlikni rivojlantirish va reflektiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodlar o'quvchilarning axloqiy fikrlashini faollashtirib, ularda ongli tanlov qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'qituvchi va ota-onalarning shaxsiy namunasi, tarixiy shaxslar va milliy qahramonlar hayotini o'rganish, badiiy adabiyot hamda zamonaviy media mahsulotlarini axloqiy tahlil qilish o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi. O'z-o'zini baholash kundaliklari, ijodiy topshiriqlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish esa ularning axloqiy qarashlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, VUCA-dunyo konseptida o'quvchilarda axloqiy dunyoqarashni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor ilmiy-amaliy muammolaridan biridir. Ushbu jarayon o'quvchilarning

o'zgaruvchan va noaniq sharoitlarda mustaqil fikrlay olishi, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga tayangan holda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishi va jamiyatning faol fuqarosi sifatida kamol topishini ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tizimida axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlil, natijalar va tavsiyalar (Analysis, Results and Recommendations)

Bugungi kunda VUCA-dunyo (o'zgaruvchanlik, noaniqlik, murakkablik va mavhumlik) sharoitida 9–11-sinf o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi tezkor ijtimoiy o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi o'quvchilardan nafaqat mustahkam bilim, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar va ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham talab etmoqda. Shu sababli tadqiqot doirasida VUCA-konsepsiyasiga asoslangan pedagogik yondashuvning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali o'rganildi.

Tajriba umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9–11-sinf o'quvchilari orasida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 120 nafar respondent qatnashdi, ulardan 60 nafari tajriba guruhi, 60 nafari esa nazorat guruhi sifatida belgilandi. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarning axloqiy dunyoqarashi maxsus mezonlar asosida baholandi. Bunda ularning axloqiy qadriyatlarga munosabati, fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy fikrlash darajasi, bag'rikenglik, hamkorlik madaniyati hamda murakkab vaziyatlarda axloqiy tanlov qila olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratildi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, o'quvchilarning bir qismida axloqiy dunyoqarash yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Xususan, o'quvchilarning 25,0 foizida ko'rsatkich past, 43,3 foizida o'rta va 31,7 foizida yuqori darajada ekanligi qayd etildi. Bu esa o'quvchilarning ayrimlari noaniq va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil hamda asosli axloqiy qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatdi.

Shundan so'ng tajriba guruhida VUCA-konsepsiyasiga mos ravishda ishlab chiqilgan pedagogik dastur amaliyotga joriy etildi. Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar tahlili (case study), axloqiy dilemma usuli, debat va munozaralar, rol o'yinlar, refleksiv tahlil hamda loyihaviy faoliyat kabi zamonaviy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishi va axloqiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qildi.

Nazorat bosqichida olingan natijalar tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Jumladan, yuqori darajadagi axloqiy dunyoqarashga ega o'quvchilar ulushi 31,7 foizdan 48,3 foizgacha oshdi, o'rta darajadagi ko'rsatkich 43,3 foizdan 41,7 foizgacha o'zgardi, past darajadagi ko'rsatkich esa 25,0 foizdan 10,0 foizgacha kamaydi. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi.

9–11-sinf o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashning rivojlanish ko'rsatkichlari

Daraja	Aniqlovchi bosqich	Nazorat bosqichi
Past	25,0	10,0
O'rta	43,3	41,7
Yuqori	31,7	48,3

Jadval ma'lumotlari VUCA-konsepsiyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ularda ijtimoiy mas'uliyat, bag'rikenglik, tanqidiy fikrlash va murakkab vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlangani kuzatildi.

Tavsiyalar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9–11-sinflarida VUCA-konsepsiyasiga asoslangan axloqiy tarbiya modelini joriy etish;

- tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar darslarida muammoli vaziyatlar, axloqiy dilemmalar hamda debat metodlaridan tizimli foydalanish;
- o'quvchilarning media savodxonligi va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni kengaytirish;
- oila, maktab va mahalla hamkorligi asosida axloqiy qadriyatlarni mustahkamlovchi loyihalarni amalga oshirish;
- pedagoglar uchun VUCA pedagogikasi va qadriyatlarga yo'naltirilgan ta'lim bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning axloqiy dunyoqarashini muntazam baholash maqsadida ilmiy asoslangan monitoring va diagnostika tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi PQ-3907-son Qarori. – 2018-yil 14-avgust. – B. 1.
2. Absattarov A.X. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning kuchi va o'rni // *Polish Science Journal*. – ScienceCentrum.pl. – 2020. – № 12(33). – B. 193. – ISBN 978-83-949403-4-8.
3. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmanov N.O'. *Pedagogika*. – Toshkent, 2011. – B. 215.
4. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. *Pedagogika*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – B. 19.
5. Atakulova N.A. *Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tizimi* mavzusida (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Namangan, 2019. – B. 25.
6. *O'quvchilarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni* // CyberLeninka. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarni-tarbiyalashda-ma-naviy-axloqiy-tarbiyaning-tutgan-o-rni/viewer>